



XORIJIY DAVLATLAR ISLOM DARCHALARI MOLIVAVIY SAMARADORLIGI TAHLILI

Sirojiddinov Shukrullo

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi*

ORCID: 0009-0004-9893-4406

sirojiddiniv2002@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom moliyasi yaxshi rivojlangan, islom banklari va islom darchalari faoliyat yuritayotgan turli mamlakatlarning 2014-2024-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari empirik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari islom darchalarining mavjud infratuzilmadan foydalanish hisobiga yuqori operatsion samaradorlik va rentabellikka ega ekanligini ko'rsatgan. Bu natijalari orqali esa hozirgi O'zbekiston sharoitida qaysi islom bankchiligi ustuvor tanlovga mosligi aniqlangan. Xalqaro tajriba asosida O'zbekiston bank tizimida islom darchalarini joriy etish uchun maqbul benchmark ko'rsatkichlari va strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: islom bankchiligi, islom darchasi, to'liq islom banki, operatsion samaradorlik, rentabellik, xalqaro tajriba, O'zbekiston bank tizimi, benchmark ko'rsatkichlari.

АНАЛИЗ ФИНАНСОВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСЛАМСКИХ ОКОН В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Сирожиддинов Шукрулло

*Научно-исследовательского центра «Научные основы
и проблемы развития экономики Узбекистана» при
Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В статье проводится эмпирический анализ финансовых показателей различных стран с развитым исламским финансированием, где действуют исламские банки и исламские окна, за период 2014–2024 годов. Результаты исследования показали, что исламские банки обладают высокой операционной эффективностью и прибыльностью за счет использования существующей инфраструктуры. Эти результаты также позволили определить, какой тип исламского банкинга является наиболее подходящим выбором в нынешних условиях Узбекистана. На основе международного опыта разработаны оптимальные эталонные показатели и стратегические рекомендации по внедрению исламских окон в банковскую систему Узбекистана.

Ключевые слова: исламский банкинг, исламское окно, полноценный исламский банкинг, операционная эффективность, прибыльность, международный опыт, банковская система Узбекистана, контрольные показатели.

ANALYSIS OF THE FINANCIAL PERFORMANCE OF ISLAMIC BANKING WINDOWS IN FOREIGN COUNTRIES

Sirojiddinov Shukrullo

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article provides an empirical analysis of the financial indicators of various countries with developed Islamic finance, where Islamic banks and Islamic windows operate, for the period 2014-2024. The results of the study showed that Islamic banks have high operational efficiency and profitability due to the use of existing infrastructure. These results also allowed us to determine which type of Islamic banking is the most appropriate choice in the current conditions of Uzbekistan. Based on international experience, optimal benchmarks and strategic recommendations for the implementation of Islamic windows in the banking system of Uzbekistan have been developed.*

Keywords: *Islamic banking, Islamic window, full-fledged Islamic banking, operational efficiency, profitability, international experience, banking system of Uzbekistan, benchmarks.*

Kirish.

Jahonda islom moliyasi so'nggi o'n yil ichida jahon moliya tizimining ajralmas qismiga aylandi. Islom Moliyasi Xizmatlari Kengashi (Islamic Financial Services Board, IFSB) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilga kelib global islom moliya aktivlari 3,88 trillion AQSh dollariga yetib, yillik 14,9 foizlik o'sishni qayd etdi. Ushbu aktivlarning 70 foizdan ortig'ini islom banklari tashkil etib, 2024-yilda 2.7 trillion AQSh dollaridan oshdi (Financial Services Stability Report, 2025) Islom banklari segmenti ichida ikkita institutsional model raqobatlashmoqda: to'liq islom banklari va tijorat banklaridagi islom darchalari. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 336 ta to'liq islom banki va 274 ta islom darchasi ochgan tijorat banki faoliyat yuritmoqda. Muhimi - o'tgan o'n yil ichida to'liq islom banklari soni 36 foiz o'sgan bo'lsa, islom darchalari 84 foiz o'sdi - bu islom darchasi modelining global miqyosda tobora keng tarqalayotganidan dalolat bermoqda.

Ustiga ustak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonida belgilangan moliya bozorini diversifikatsiya qilish va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 27-mart 2026-yildagi O'RQ-1126-sonli - "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash yo'lida mamlakatda islom bankchilik xizmatlarini keng yo'lga qo'yish uchun bank modelini tanlash ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, chet elda faoliyat yuritayotgan islom bank muassasalarini moliyaviy jihatdan empirik tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning natijalari islom bankchiligining mamlakat moliya bozoriga tez sur'atlarda kirib borishini va mamlakat uchun barqaror moliyaviy yechimlarni joriy etishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Islom banklari va islomiy darchalar mavzusi so'nggi yillarda iqtisodchi olimlar e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda, ammo ushbu ikki institut faoliyatining qiyosiy o'rganilishi hali ham cheklangan.

Hasan va Risfandy (2021) Indonesiya misolida 14 to'liq huquqli islom banki va 19 islomiy darcha faoliyatini 2013-2018 yillar oralig'ida tahlil qilib, OLS va panel tasodifiy effektlar usullaridan foydalangan holda, islomiy darchalarning barqarorligi to'liq huquqli

islom banklariga nisbatan yuqori ekanligini aniqladilar. Mualliflar buni Indoneziya islom bank bozorining yuqori raqobatbardoshligi bilan izohlaydilar - darchalar o'z "parent" banklarining moliyaviy imkoniyatlari tayanib, mustaqil islom banklariga xos qo'shimcha risklardan xoli qoladi.

Almuradov (2021) o'zining tadqiqotida O'zbekistonda islomiy moliya sohasining nazariy asoslarini ko'rib chiqib, mushoraka, murobaha, mudoraba kabi shartnoma turlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi va mamlakatda islom darchalarini joriy etish bo'yicha ilk amaliy qadamlar (Kapitalbank, Trastbank, Agrobank va boshqalar) ni sanab o'tadi, biroq bu jarayonning iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholamaydi.

Eshimov va Dadabayev (2025) an'anaviy va islomiy banklar integratsiyasi masalasini kontseptual jihatdan yoritib, "islom darchalari"ning diversifikatsiya, likvidlilik va mijozlar sonini oshirish bo'yicha afzalliklarini tasvirlab berdilar, ammo bu ish tasviriy xarakterga ega bo'lib, ekonometrik tahlilni o'z ichiga olmaydi.

Dadabayev (2025) esa ushbu bo'shliqni to'ldirib, 2007-2022 yillar bo'yicha dunyo islom banklari aktivlari, ularning soni va islom darchalari soni o'rtasidagi bog'liqlikni OLS regressiya modeli orqali tekshirdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, islom darchalari sonining o'sishi (logarifmik shaklda) islom banklari aktivlari hajmiga statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, garchi bu ta'sir banklar sonining o'sishiga qaraganda nisbatan kichikroq bo'lsa-da.

Shunday qilib, O'zbekiston uchun qaysi model ustuvorligini topish uchun turli mamlakatlarning moliyaviy holatini tahlil qilishimiz kerak deb hisobladik.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi turli mamlakatlar islom banklari va darchalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini qiyosiy empirik jihatdan tahlil qilishga asoslanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mazkur maqoladagi empirik tahlil IFSBning rasmiy "Prudential and Structural Islamic Financial Indicators" ma'lumotlar bazasiga asoslangan holda tayyorlandi. Tahlilga 6 mamlakat - Malayziya, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Indoneziya, Ummon va Qirg'iziston - bo'yicha 2014–2024-yillarni qamrab oluvchi har choraklik ma'lumotlari jalb etildi. Har bir mamlakat uchun ikki institutsional model - tijorat banklari qoshidagi islom darchalari va to'liq islom banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari yonma-yon taqqoslanadi.

Tahlil uchun tanlangan 6 mamlakat islom bankchiligining turli rivojlanish bosqichlari va institutsional muhitlarini qamrab oladi. Malayziya - islom moliyasining global yetakchisi va eng yetuk bozor egasi; Saudiya Arabistoni hamda Ummon — Fors ko'rfazi mintaqasi vakillari bo'lib, biri eng yirik, ikkinchisi eng yosh bozorlardan; Pokiston - Janubiy Osiyoning yirik islom moliya bozori; Indoneziya - Janubi-Sharqiy Osiyoda darchalarni mustaqil to'liq bankka ajratish siyosatini qo'llagan mamlakat; Qirg'iziston esa - postsovet o'tish iqtisodiyotiga ega, O'zbekistonga institutsional jihatdan eng yaqin Markaziy Osiyo davlati hisoblanadi. Bunday tanlov tadqiqot xulosalarini bitta mintaqa yoki rivojlanish darajasi bilan cheklanib qolishdan saqlaydi va olingan natijalarning umumiyligini oshiradi.

Taqqoslash uchta asosiy ko'rsatkich atrofida qurilgan. Birinchisi - samaradorlik (Cost-to-Income Ratio, CIR), ya'ni operatsion xarajatlarning yalpi daromadga nisbati; u operatsion samaradorlikni hisoblaydi va past qiymat yuqori samaradorlikni anglatadi. Ikkinchisi - aktivlar rentabelligi (Return on Assets, ROA), ya'ni sof foydaning jami aktivlarga nisbati. Uchinchi - sof foyda marjasi (Net Profit Margin, NPM), ya'ni sof foydaning yalpi daromaddagi ulushi hisobalanadi. Bular tashqari, aktivlar sifatini baholash uchun yalpi muammoli moliyalash nisbati (Gross Non-Performing Financing ratio, NPF) ham qiyoslandi. Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi IFSB PSIFIs metodologiyasi bo'yicha bir xil tarzda

hisoblanib, darcha va to'liq bank segmentlari uchun alohida-alohida e'lon qilinadi, bu esa ularni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash imkonini beradi.

Tahlilda bir muhim metodologik jihatga e'tibor qaratildi: mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, valyuta, soliq tizimi, islom moliyasining bu davlatda shakllanganlik davri va bozor ulushi sezilarli farq qiladi. Shu sababli xulosalar mamlakatlararo ko'rsatkichlar darajasini bevosita solishtirishga emas, balki har bir mamlakat ichidagi darcha va to'liq bank farqlariga asoslanadi. Bunday taqqoslash institutsional va makroiqtisodiy farqlar ta'sirini neytrallashtiradi, chunki bir mamlakatdagi darcha va to'liq bank aynan bir xil tartibga solish, regulativ ta'sir, valyuta va makroiqtisodiy muhitda faoliyat yuritadi. IFSB PSIFIs bazasidagi ma'lumotlar choraklik davrga tayangan bo'lib, ayrim mamlakatlar uchun bu davr farq qiladi; har bir mamlakat tahlilida foydalanilgan aniq davr tegishli jadvallarda keltirilgan.

Malayziya. Malayziya islom moliyasining global yetakchisi va dunyodagi eng yetuk ikki tomonlama (dual) bank tizimiga ega mamlakatlardan biridir. Mamlakatda islom bankchiligi 1983-yilda "Islamic Banking Act" qonuni qabul qilinib, birinchi to'liq islom banki - Bank Islam Malaysia Berhad tashkil etilishi bilan boshlangan. 1993-yildan esa Markaziy bank (Bank Negara Malaysia) an'anaviy tijorat banklariga islom darchalari ochish imkonini berdi, bu esa segmentning jadal kengayishiga olib keldi (Islamic Banking Act, 1983). Bugungi kunda Malayziya tajribasi islom darchasi modelining yetuk bozordagi uzoq muddatli samaradorligini baholash uchun eng ishonchli etalon hisoblanadi.

1-jadval.

Malayziya islom darchalari va to'liq islom banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari (2014-yil 1-chorak – 2024-yil 2-chorak o'rtacha qiymatlari, %)

Ko'rsatkich	Islom darchasi	To'liq islom banki	Tafovut
Xarajatlar samaradorligi	28,9	39,8	-10,9
Sof foyda marjasi	62,0	39,1	+22,9
Aktivlar rentabelligi	1,44	1,04	+0,40
Muammoli moliyalash	1,17	1,41	-0,24

Manba: IFSB PSIFIs ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, hatto Malayziya kabi yetuk bozorda ham darchalar to'liq banklarga nisbatan sezilarli xarajat samaradorligiga ega: darchalarning o'rtacha samarad ko'rsatkichi 28,9 foizni tashkil etgan holda, to'liq banklarda bu ko'rsatkich 39,8 foizga teng - ya'ni darchalar daromadning har bir birligiga deyarli 11 foiz arzonroq xizmat ko'rsatish bilan erishgan. Bu farq operatsion samaradorlikdagi tizimli ustunlikni, ya'ni tijorat bank infratuzilmasidan foydalanish samarasini, bevosita aks ettiradi. Rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha ham darchalar ustun: sof foyda marjasi darchalarda 62,0 foizni (to'liq banklarda 39,1 foiz), aktivlar rentabelligi esa 1,44 foizni (to'liq banklarda 1,04 foiz) tashkil etgan. Aktivlar sifati ham darchalar foydasiga - muammoli moliyalash ulushi darchalarda 1,17 foiz, to'liq banklarda 1,41 foiz. Demak, Malayziya misolida darchalar nafaqat arzonroq, balki daromadliroq va kreditlash sifati jihatidan ham yaxshiroq segment sifatida namoyon bo'ladi (1-jadval).

Saudiya Arabistoni. Saudiya Arabistoni dunyodagi eng yirik islom moliya bozorlaridan biri bo'lib, mamlakatdagi deyarli barcha banklar shariatga muvofiq mahsulotlar taklif etadi. Bu yerda dunyoning eng yirik to'liq islom banklaridan biri - Al Rajhi Bank faoliyat yuritadi, ko'plab an'anaviy banklar esa keng islom darchalariga ega; tizimni Saudiya Markaziy banki tartibga soladi. Saudiya tajribasi muhim ahamiyati kasb etadi, chunki bu yerda to'liq islom banklarining o'zi jahon miqyosida yetakchi miqyos va

samaradorlikka erishgan, shu bois darcha va to'liq bank o'rtasidagi farq qanchalik saqlanishini kuzatish nazariy jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

2-jadval.

Saudiya Arabistoni islom darchalari va to'liq islom banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari (2014-yil 1-chorak – 2024-yil 1-chorak o'rtacha qiymatlari, %)

Ko'rsatkich	Islom darchasi	To'liq islom banki	Tafovut
Xarajatlar samaradorligi	38,9	47,7	-8,8
Sof foyda marjasi	53,3	51,7	+1,7
Aktivlar rentabelligi	2,18	2,25	-0,07
Muammoli moliyalash	1,47	1,14	+0,33

Manba: IFSB PSIFIs ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Saudiya misoli tahlilimizdagi eng nozik holatni ifodalaydi. Operatsion samaradorlik bo'yicha darchalar bu yerda ham ustun: o'rtacha xarajatlar samaradorligi darchalarda 38,9 foiz, to'liq banklarda 47,7 foiz - taxminan 9 foiz punkt farq, bu tijorat bank infratuzilmasi samarasining yana bir tasdig'idir. Biroq rentabellik bo'yicha farq minimal: aktivlar rentabelligi to'liq banklarda hatto bir oz yuqoriroq (2,25 foiz va 2,18 foiz), sof foyda marjasi esa darchalarda biroz ustun (53,3 foiz va 51,7 foiz). Bu natija mantiqiy hisoblanadi, chunki Saudiyaning Al Rajhi singari to'liq islom banklari ulkan miqyos iqtisodiyotiga erishgani uchun ularning rentabelligi darchalarnikidan qolishmaydi. Shu bilan birga, hatto bunday kuchli to'liq banklar fonida ham darchalarning xarajat samaradorligi ustunligi saqlanib qolgani infratuzilmani baham ko'rish samarasining bozor yetukligidan qat'i nazar tizimli xususiyat ekanini ko'rsatadi (2-jadval). Aktivlar sifati bo'yicha esa bu mamlakatda to'liq banklar bir oz ustun (NPF - 1,14% va 1,47 %).

Pokiston. Pokiston Janubiy Osiyoning eng rivojlangan islom moliya bozorlaridan biridir. Mamlakatda zamonaviy islom bankchiligi 2002-yilda birinchi to'liq islom banki - Meezan Bankning litsenziyalanishi bilan boshlandi; Davlat banki (State Bank of Pakistan) qoshida islom bankchiligi departamenti tashkil etilib, banklarga uch yo'nalish - mustaqil islom banki, sho'ba bank yoki an'anaviy bank qoshida islom darchasi ochish - taklif qilindi. Pokiston tajribasi darcha segmentining vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanishini kuzatish uchun ayniqsa qimmatli, chunki bu yerda segment o'n yildan ortiq davomida izchil o'sib bordi.

3-jadval.


Pokiston islom darchalari va to'liq islom banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari (2014-yil 1-chorak – 2024-yil 2-chorak o'rtacha qiymatlari, %)

Ko'rsatkich	Islom darchasi	To'liq islom banki	Tafovut
Xarajatlar samaradorligi	51,5	59,6	-8,1
Sof foyda marjasi	46,1	37,7	+8,4
Aktivlar rentabelligi	2,19	2,06	+0,13
Muammoli moliyalash	2,11	4,77	-2,66

Manba: IFSB PSIFIs ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Pokiston ma'lumotlari darchalarning barqaror ustunligini va, eng muhimi, vaqt o'tishi bilan samaradorlikning kuchayib borish tendentsiyasini ko'rsatadi. O'rtacha hisobda darchalarning samaradorlik ko'rsatkichi 51,5 foiz, to'liq banklarniki 59,6 foiz; sof foyda marjasi darchalarda 46,1 foiz (to'liq banklarda 37,7 foiz), aktivlar rentabelligi esa 2,19 foizga

qarshi 2,06 foizni tashkil etgan (3-jadval). Aktivlar sifati bo'yicha farq ayniqsa keskin trend tashkil etgan: darchalarda muammoli moliyalash ulushi 2,11 foiz bo'lsa, to'liq banklarda u 4,77 foizga yetadi - ya'ni darchalar kredit riskini sezilarli darajada yaxshiroq boshqargan. 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, darchalarning sof foyda marjasi shu davrda taxminan 40 foizdan 67 foizgacha o'sgan. Bu dinamika darchalar bozorda yetuklashgani sari samaradorligi qanday oshib borishini va sof foyda marjasining ijobiy o'sish trendiga egaligini ko'rsatadi - mazkur xususiyat keyingi bo'limda formal ravishda tekshiriladi.



1-rasm. Pokiston islom darchalari samaradorligining dinamikasi (CIR va NPM), 2014-2024

Manba: IFSB PSIFs ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Indoneziya. Indoneziya - dunyodagi eng yirik musulmon aholiga ega davlat va islom moliyasi salohiyati yuqori bozor hisoblanadi. Mamlakatda birinchi islom banki - Bank Muamalat Indonesia 1991-yilda tashkil etilgan. Indoneziya tajribasining o'ziga xosligi shundaki, 2008-yilgi "Islom bankchiligi to'g'risida"gi 21-sonli Qonun (68-modda) ga binoan, an'anaviy banklar qoshidagi islom darchalari aktivlari tijorat bank aktivlarining 50 foiziga yetganda yoki qonun qabul qilingandan 15 yil o'tib (2023-yilga qadar) majburiy ravishda mustaqil to'liq islom bankiga ajratilishi (spin-off) belgilangan; ushbu siyosat keyinchalik 2023-yilgi 4-sonli Qonunda ham saqlab qolindi (Republic of Indonesia, 2008). Aynan shu spin-off siyosati Indoneziyani darcha va to'liq bank samaradorligini taqqoslash uchun nazariy jihatdan o'ta muhim holatga aylantiradi.

4-jadval.

Indoneziya islom darchalari va to'liq islom banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari (2014-yil 1-chorak - 2023-yil 2-chorak o'rtacha qiymatlari, %)

Ko'rsatkich	Islom darchasi	To'liq islom banki	Tafovvut
Xarajatlar samaradorligi	65,1	84,1	-19,0
Sof foyda marjasi	35,5	16,5	+19,0
Aktivlar rentabelligi	2,20	1,49	+0,71
Muammoli moliyalash	2,83	3,85	-1,02

Manba: IFSB PSIFs ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Indoneziya ma'lumotlari darcha modelining ustunligini eng yorqin namoyish etadi. O'rtacha samaradorlik darchalarda 65,1 foiz bo'lsa, to'liq banklarda u 84,1 foizga yetadi - deyarli 19 foiz punktlilik farq. Sof foyda marjasidagi tafovut yanada katta: darchalarda 35,5 foiz, to'liq banklarda atigi 16,5 foiz. Aktivlar rentabelligi ham darchalar foydasiga (2,20 foiz va 1,49 foiz) aktivlar sifati ham (NPF 2,83 foiz va 3,85 foiz). Ushbu natijalar Indoneziya sharoitida muhim siyosiy paradoksni ochib beradi: darchalar to'liq banklarga nisbatan ancha samarali bo'lsa-da, qonun ularni samarasi pastroq bo'lgan mustaqil to'liq bank formatiga o'tishga majbur qiladi. Risfandi va boshqalar (2021) ham aynan shu masalani - Indoneziyada darcha va to'liq banklarning barqarorligi va samaradorligini taqqoslab - darchalarning ustunligini qayd etgan. O'zbekiston uchun bu tajriba muhim saboq beradi: darchalarni majburan to'liq bankka aylantirish ularning asosiy raqobatbardosh ustunligini - past xarajat samaradorligini - yo'qotish xavfini tug'diradi.

Ummon. Ummon Fors ko'rfazi mintaqasida islom bankchiligini eng oxirgi bo'lib joriy etgan mamlakatdir. Markaziy bank (Central Bank of Oman) 2012-yil dekabrda "Islom bankchiligini tartibga solish asoslari" (Islamic Banking Regulatory Framework) ni qabul qilib, 69/2012-sonli Qirollik farmoni asosida ham to'liq islom banklari va an'anaviy banklar qoshidagi islom darchalarini bir vaqtda joriy etishga ruxsat berdi. 2013-yilda birinchi to'liq islom banklari - Bank Nizwa va Al Izz Islamic Bank ish boshladi, shu bilan birga oltita yirik an'anaviy bank islom darchalarini ochdi. Ummon - tahlilimizdagi eng yosh bozor bo'lib, u O'zbekiston uchun eng yaqin va eng mos holatlardan biridir, chunki bu yerda ham islom moliyasi noldan, zamonaviy sharoitda boshlangan.


5-jadval.

Ummon islom darchalari va to'liq islom banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari (2014-yil 1-chorak -2023-yil 3-chorak o'rtacha qiymatlari, %)

Ko'rsatkich	Islom darchasi	To'liq islom banki	Tafovut
Xarajatlar samaradorligi	51,5	59,6	-8,1
Sof foyda marjasi	46,1	37,7	+8,4
Aktivlar rentabelligi	2,19	2,06	+0,13
Muammoli moliyalash	2,11	4,77	-2,66

Manba: IFSB PSIFIs ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

Ummon misoli butun tahlilimizdagi eng keskin va eng ko'rsatkichli natijani beradi. Yosh bozorda to'liq islom banklari dastlabki yillarda jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi: ularning o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi 98,1 foizni tashkil etgan - ya'ni operatsion xarajatlar yalpi daromadni deyarli "yutib yuborgan". Buning natijasida to'liq banklarning o'rtacha sof foyda marjasi manfiy (-14,0 foiz), aktivlar rentabelligi ham manfiy (-0,40 foiz) bo'ldi: yangi tashkil etilgan to'liq islom banklari yuqori boshlang'ich xarajatlar va moliyalashtirish manbaalari yetishmasligi tufayli yillar davomida zarar ko'rdi. Aynan shu davrda darchalar butunlay boshqacha holat namoyish etdi: ularning o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi 45,9 foiz, sof foyda marjasi musbat 35,7 foiz, aktivlar rentabelligi esa 1,01 foizni tashkil etdi. Darcha va to'liq bank o'rtasidagi samaradorlik farqi 52 foiz punktdan oshdi - bu infratuzilmani baham ko'rish samarasining eng yaqqol empirik dalilidir (5-jadval). 2-rasmda ushbu farq va to'liq banklarning "zarar chegarasi" (100 foiz CIR) atrofidagi harakati aniq ko'rinadi. Ummon tajribasi O'zbekiston uchun bevosita yo'nalish beradi: noldan tashkil etilgan to'liq islom banki dastlabki yillarda zarar ko'rish ehtimoli yuqori, mavjud tijorat banki qoshidagi darcha esa ayni o'sha sharoitda samarali va daromadli faoliyat yurita oladi.



2-rasm. Ummon: islom darchasi va to'liq islom bankining xarajatlar samaradorligi dinamikasi, 2014–2024

Manba: IFSB PSIFIs ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

Qirg'iziston. Qirg'iziston - O'zbekistonga geografik, tarixiy va institutsional jihatdan eng yaqin Markaziy Osiyo davlati bo'lib, postsovet o'tish iqtisodiyoti sharoitida islom moliyasini rivojlantirish tajribasiga ega. Mamlakatda islom bankchiligi 2006-yilda Islom taraqqiyot banki (IDB) va Qirg'iziston Milliy banki (NBKR)ning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan, 'EcoIslamicBank' loyihasi sifatida boshlangan; ushbu bank uzoq yillar mamlakatdagi yagona shariatga muvofiq moliya instituti bo'lib qoldi. 2017-yildan boshlab NBKR raqobatni kuchaytirish maqsadida an'anaviy banklarga islom darchalari ochish imkonini berdi va bir nechta bank (Bakai Bank, "Bank Kyrgyzstan", Aiyl Bank) bu yo'nalishni tanladi. Hozircha islom moliyasining mamlakat bank tizimidagi ulushi 1,5 foiz atrofida bo'lib, NBKR uni izchil oshirishni strategik maqsad qilib qo'ygan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, IFSB PSIFIs bazasida Qirg'iziston bo'yicha (2020-yildan boshlab) faqat aktivlar sifati - muammoli moliyalash nisbati (NPF) — bo'yicha izchil ma'lumot mavjud; samaradorlik (CIR) va rentabellik (ROA, NPM) ko'rsatkichlari to'plangan emas. Mavjud ma'lumot esa boshqa mamlakatlardagi holatni tasdiqlaydi: islom darchalarining o'rtacha muammoli moliyalash ulushi 4,98 foiz bo'lsa, to'liq islom banki segmentida (asosan EcoIslamicBank) bu ko'rsatkich 9,42 foizga yetadi - ya'ni darchalar kredit riskini deyarli ikki barobar yaxshiroq boshqargan. Bu farq darchalarning tijorat bank risk-menejment tizimidan foydalanishi bilan izohlanadi (6-jadval).


6-jadval.

Qirg'iziston islom darchalari va to'liq islom bankining aktivlar sifati ko'rsatkichi (2020-yil 1-chorak – 2024-yil 2-chorak o'rtacha qiymatlari, %)

Ko'rsatkich	Islom darchasi	To'liq islom banki	Tafovvut
Muammoli moliyalash	4,98	9,42	-4,44

Manba: IFSB PSIFIs ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi. CIR, ROA va NPM ko'rsatkichlari IFSB bazasida Qirg'iziston uchun mavjud emas.

Garchi Qirg'iziston bo'yicha to'liq moliyaviy taqqoslash imkoni cheklangan bo'lsa-da, bu mamlakat tajribasi O'zbekiston uchun sifat jihatidan muhim saboqlar beradi. Birinchidan, yagona islom banki (EcoIslamicBank) o'n yildan ortiq monopol holatda bo'lib, raqobat yetishmasligi xizmat sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan; an'anaviy banklar qoshida darchalar



**3-rasm. Xarajatlar samaradorligi jamlanmasi
(%, ID-islom darchasi, IB-islom banki)**


Manba: muallif ishlanmasi.

paydo bo'lishi esa bozorga raqobat va dinamiklik olib keldi. Ikkinchidan, darchalar mavjud bank infratuzilmasi va tarmog'i orqali aholiga shariatga muvofiq xizmatlarni tezroq va kengroq yetkazish imkonini berdi. Ushbu xulosalar O'zbekiston uchun darcha modelining postsovet kontekstidagi maqsadga muvofiqligini qo'shimcha asoslaydi.

Qiyosiy jihatdan umumlashtirish va O'zbekiston uchun benchmark. Olti mamlakat bo'yicha o'tkazilgan tahlil yagona va izchil xulosaga olib keladi: islom darchalari moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha to'liq islom banklaridan barqaror ustunlikka ega. Quyidagi jamlovchi rasmlar ushbu natijani umumlashtirilgan ko'rinishda taqdim etadi.

3-rasmda xarajatlar samaradorligi jamlanmasi so'nggi 10 yillik ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi, unda ilgari surgan "parent bank" infratuzilmasi baham ko'rish nazariyamiz o'zini empirik jihatdan oqladi. Unga ko'rsa islom darcha 1 birlik daromad topish uchun islom banklariga qaraganda kamroq xarajat qolmoqda, buni har bir mamlakat statistikalari ko'rsatmoqda.


4-rasmda beshta mamlakat misolida islom darchalari (ID) va islom banklarining (IB) sof foyda marjasi qiyoslanganda, barcha davlatlarda ID rentabelligi IBga qaraganda yuqoriligi aniqlandi. Eng yuqori samaradorlik Malayziyada (ID – 62%), eng minimal farq esa Saudiya Arabistonida (1,6%) kuzatildi. Bu qonuniyat islom darchalarining an'anaviy banklar infratuzilmasidan foydalanishi hisobiga operatsion xarajatlarni tejashi bilan izohlanadi. Xulosa qilib aytganda, islomiy moliya bozoriga yangi kirib borayotgan davlatlar uchun dastlabki bosqichda an'anaviy banklar qoshida "islom darchasi"ni ochish iqtisodiy jihatdan eng samarali va kam xarajatli strategiya hisoblanadi.



4-rasm. Sof foyda ko'rsatkichi (%), ID-islom darchasi, IB-islom banki)

Manba: muallif ishlanmasi.


5-rasmda aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Saudiya Arabistonidan tashqari barcha mamlakatlarda islom darchalari (ID) to'la islom banklariga (IB) nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Xususan, Indoneziyada ID rentabelligi (2,20%) IBga (1,49%) qaraganda yaqqol ustunlikka ega. Faqatgina Saudiya Arabistonida mustaqil islom banklari yetakchilik qilmoqda (2,25%). Pokiston va Ummonda esa ko'rsatkichlar deyarli bir xil trendni ko'rsatgan. Umumiy xulosa shundan iboratki, an'anaviy banklarning resurs va infratuzilmalaridan foydalanish imkoniyati islom darchalariga o'z aktivlarini kamroq xarajat evaziga samarali boshqarish va yuqori rentabellikka erishish imkonini beradi. (86 ta so'z)



5-rasm. Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi (% , ID-islom darchasi, IB-islom banki)

Manba: muallif ishlanmasi.

6-rasmda Xalq orasida NPL nomi bilan Muammoli moliyalash darajasi bo'yicha islom darchalari (ID) va islom banklari (IB) qiyoslanganda, Saudiya Arabistonidan tashqari barcha davlatlarda ID tizimida risk darajasi ancha pastligi aniqlandi. Ayniqsa, Qirg'izistonda IB ko'rsatkichi eng yuqori (9,42%), ID esa deyarli ikki barobar xavfsizroq (4,98%) ekanini ko'rsatdi. Pokiston va Ummonda ham ID ko'rsatkichlari (2,11%) IBga (4,77%) qaraganda sezilarli darajada ijobiydir. Bu holat an'anaviy banklar tarkibidagi islom darchalarining risklarni boshqarish tizimi (underwriting) ancha mukammal shakllangani hamda diversifikatsiya imkoniyatlari kengligi bilan izohlanadi.



6-rasm. Muammoli moliyalash. (% , ID-islom darchasi, IB-islom banki)

Manba: muallif ishlanmasi.

Xulosa va takliflar.

Oltita mamlakat bo'yicha o'tkazilgan empirik tahlil islom darchalarining to'liq islom banklariga nisbatan operatsion samaradorlik, rentabellik va aktivlar sifati jihatidan barqaror ustunligini tasdiqladi. Mavjud tijorat banki infratuzilmasidan foydalanish ushbu ustunlikning asosiy omili hisoblanadi. O'zbekiston uchun islom bankchiligini rivojlantirishning dastlabki bosqichida tijorat banklari qoshida islom darchalarini joriy etish strategik jihatdan maqsadga muvofiq va iqtisodiy jihatdan samaraliroq yechim hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Almuradov, O.A. (2021). O'zbekiston tijorat banklarida islom bank xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(4), 854–860.

Central Bank of Oman. (2012). *Islamic Banking Regulatory Framework*.

Dadabayev, U.A. (2025). Alternativ moliya bozori: "Islom darcha"lari faoliyatining mamlakatlar moliyaviy sektoriga ta'siri. *Ilg'or Iqtisodiyot va Pedagogik Texnologiyalar*, 1, 129–138.

Eshimov, A.D. & Dadabayev, U.A. (2025). An'anaviy va islomiy banklarning integratsiyasi: jahon moliya bozoridagi imkoniyatlar va muammolar. *Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil*, 1, 50–57.

Hasan, A.I. & Risfandy, T. (2021). Islamic banks' stability: Full-fledged vs Islamic windows. *Journal of Accounting and Investment*, 22(1), 192–205. <https://doi.org/10.18196/jai.v22i1.10287>

Hasan, M., & Risfandy, T. (2021). Islamic Banks' Stability: Full-Fledged vs Islamic Windows. *Jurnal Akuntansi dan Investasi*, 22(1), 175–189.

IFSB - Prudential and Structural Islamic Financial Indicators (PSIFIs) database. *Islamic Financial Services Board*, Kuala-Lumpur.

Islamic Banking Act 1983; Bank Negara Malaysia. Birinchi to'liq islom banki — Bank Islam Malaysia Berhad (1983), islom darchalari sxemasi - 1993-yildan; 2013-yilda "Islamic Financial Services Act" bilan almashtirilgan.

Islamic Financial Services Stability Report 2025.

National Bank of the Kyrgyz Republic (NBKR); IDB-NBKR pilot loyihasi (2006), EcoIslamicBank; islom darchalari 2017-yildan (Bakai Bank, "Bank Kyrgyzstan", Aiyl Bank). Manba: IFC, Islamic Banking and Finance Opportunities (Kyrgyz Republic).

Republic of Indonesia, Law No. 21/2008 on Sharia Banking, 68-modda (spin-off majburiyati, 2023-yilga qadar); 2023-yilgi 4-sonli Qonun bilan saqlab qolingani. Bank Muamalat Indonesia (1991); regulyator — Otoritas Jasa Keuangan (OJK).

State Bank of Pakistan, Islamic Banking Department. Meezan Bank - birinchi to'liq islom banki (litsenziya 2002-yil); SBP uch model - mustaqil islom banki, sho'ba bank va alohida islom darchasini (stand-alone branch) belgilagan.